

## O'ZBEKISTONDA YANGI YERLARNI O'ZLASHTIRILISHI VA KO'CHIRISH JARAYONLARI TARIXIDAN

**J. B. Jumayev, G. L. Tilavova**

*JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchilari*

---

### ARTICLE INFO.

---

**Kalit so'zlar:** O'rta Osiyo, Turkiston o'lkasi, sug'orish tarmoqlari, Mirzacho'l, paxtachilik, qo'riq va bo'z yerlar, ko'chirilgan aholi, Do'stlik kanali, Nurota vohasi, Qo'shrabot-1.

### Annotation

Ushbu maqolada Sovet hukumatining O'zbekistonda olib borgan qo'riq va bo'z yerbarni o'zlashtirish siyosati, xususan, Mirzacho'lida yangi yerbarni o'zlashtirishni yanada tezlashtirish va bu yerlaga aholini ko'chirib keltirish bilan bog'liq jarayonlar haqida so'z yuritiladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

---

Bizga ma'lumki, Sovet hukumatining O'zbekistonda yangi yerbarni o'zlashtirish siyosatining ilk ildizlari Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davriga borib taqaladi. Turkiston o'lkasini xom ashyo bazasiga aylantirgan Rossiya imperiyasi rus burjuaziyasining talabiga ko'ra Turkiston qishloqlarida paxta yakkahokimligini o'rnatish uchun barcha zaruriy chora-tadbirlarni amalgalashdi.

Rossiya sanoati uchun arzon xom ashyo yetkazish uchun birinchi navbatda paxta ekin maydonlarini ko'paytirish zarur edi. Buning uchun imperiya hukumi yangi yerbarni o'zlashtirish va u yerlarda sug'orish tarmoqlarini barpo etishni ko'zladidi. Shu maqsadda Rossiya imperiyasi O'rta Osiyon bosib olganidan keyin qo'riq va bo'z yerbarni o'zlashtirishni birinchi darajali vazifa sifatida belgiladi. Paxtaga bo'lgan talabning oshib borishi Turkiston o'lkasi, xususan, Mirzacho'lida yangi yerbarni o'zlashtirishni yanada tezlashtirishni taqozo etar edi.

1894-yilda Turkiston o'lkasida safarda bo'lgan Rossiya Yer ishlari va davlat mulki vaziri Yermolov davlat Dumasining majlisida so'zga chiqib, "Turkiston paxtasining nafaqat ichki bozorda, balki Amerika paxtasi bilan raqobat qila olishi, vaqt kelib uni butunlay iste'moldan siqib chiqarashi mumkinligi" to'g'risida qat'iy fikrni bildirdi. 1900-yilda Turkiston paxtasi rus sanoati ehtiyojining 25 foizini tashkil etdi va bu raqam yil sayin oshib bordi. I jahon urushi arafasida uning miqdori 50 foizga yetdi. Imperiyada gazlama sanoatining gurkirab o'sishi ana shu paxta tufayli edi. 1889-1916-yillarda orasida Amerika navi ekiladigan Turkiston o'lkasi paxta maydonlari 7 barobar kengayganligining boisini ham shunda edi [1:6].

Shuning uchun O'zbekistonda sug'orish tarmoqlarini qurish va yangi aholi maskanlarini tashkil etish ishlari olib borildi. 1913-1915-yillarda Mirzacho'lida uzunligi 63 km, chuqurligi 3 metr, eni 6 metr bo'lgan dastlabki kanal qurilgan. 1915-1920-yillarda zovurning Sardoba tarmog'i ham ishqqa tushirildi [2:240]. Ko'rinish turibdiki, paxta uchun kurashda Rossiya hukumi o'z maqsadidan qaytmagan. Ular tomonidan bosqichma-bosqich Mirzacho'l yerbarnini, uning tuprog'ini o'rganish va tadqiq qilish ishlari davom ettirilgan.

Bu jarayon O'zbekistonda Sovet hokimiyyati o'rnatilgach ham kun tartibidan tushmadi. 1918-yil may

oyida XKS ning V.I.Lenin tomonidan imzolangan Dekreti e'lon qilindi. Unda Turkistonda sug'orish ishlariga 50 mln so'm ajratilishi ko'zda tutilgan edi. Hujjatda Mirzacho'l va Dalvarzin dashtlarini o'zlashtirish ishlarini olib borish va shu maqsadda qurilish ishlarini ham yo'lga qo'yish ko'zlangan [3:46].

XX asrning 30-40-yillarida ishlab chiqaruvchi kuchlarni mamlakat bo'ylab joylashtirish masalalari yangi bo'z yerlarni o'zlashtirish, yer osti qazilma boyliklarni ishga solish masalalari bilan bevosita bog'liq holda olib borildi. Sovet hokimiyyati o'rnatilgan dastlabki o'n yil mobaynida O'zbekistonda 86 ming hektar yer o'zlashtirilgan bo'lsa, 1934-1940 yillarga kelib yana qo'shimcha 39 ming hektar yangi yerlar o'zlashtirilgan [4:25].

O'zbekistonda II jahon urushi yillarida xalqimizning fidokorona mehnati tufayli, paxtachilikni rivojlantirish, yangi suv omborlari va kanallar qurish ishlari to'xtamagan. Biroq, 1941-1945- yillardagi fashizmga qarshi urush davrida Sovet xalq xo'jaligiga juda katta talafot yetkazildi, ko'rilgan umumiy moddiy zarar SSSR yalpi milliy boyligining 30 foizga teng deb hisoblandi [5:212].

Urushdan keyin xalqning turmush darajasi yomon ahvolda bo'lib, uy-joy, ishsizlik, oziq-ovqat va boshqa kechiktirib bo'lmash, to'planib qolgan keskin muammolarga duch kelindi. Mazkur muammolarni o'z vaqtida hal etish hamda mamlakat iqtisodini tiklash va rivojlantirishga mo'ljallangan bir qator dasturlar ilgari surildi. O'zbekistonda urushdan keyingi yillarda paxta yetishtirishga alohida e'tibor qaratildi. Respublika aholisining fidokorona xizmatlari evaziga 1946-1950-yillarda paxta maydonlari 255,9 ming ga oshdi [6:155].

Urushdan keyingi yillarda SSSR Ministrlar Soveti O'zbekistonda paxtachilikni rivojlantirishga qaratilgan bir necha qarorlar qabul qildi. Ularning eng muhimlaridan biri VKP(b) va SSSR Ministrlar Sovetining "1950- yilda O'zbekistonda paxtachilikni rivojlantirish istiqbollari to'g'risida"gi 27-sonli qarori bo'ldi. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston VKP(b) va Ministrlar Soveti tomonidan Respublikada 165,7 ming hektar yangi yerlarni o'zlashtirish belgilandi.

XX asrning 50-yillaridan boshlab Farg'ona vodiysi, Toshkent va Samarcand viloyatlari hududida yangi yerlarni o'zlashtirishga faol kirishildi. Birgina 1948-yilda Farxod GESi ishga tushishi bilan 1947-1948-yillarda qurilgan Boyovut kanaliga suv ochildi, Do'stlik kanalining suvi ko'paydi va qo'shimcha 40 ming hektar yerni o'zlashtirish imkonini tug'ildi. Yangi yerlarni o'zlashtirish borasida 1954-yil mart oyida bo'lib o'tgan KPSS MKning navbatdagi plenumi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Plenumda SSSRda g'alla muammosi kun tartibidagi dolzarb masala sifatida muhokama qilinib, mamlakat sharqida (Sibir-Qozog'iston) yangi yerlarni o'zlashtirish hisobidan g'alla plantatsiyalarini yaratishga qaror qilindi [7:19]. Shu tarzda SSSR tarixida ommaviy yangi yerlarni o'zlashtirish kampaniyasi boshlab yuborildi va 1954-1955-yillar mobaynida 13 mln. hektar yangi yer o'zlashtirilishi rejalashtirildi.

Bizga ma'lumki, SSSRda XX asrning 50-yillaridan boshlangan ko'chirish siyosati davrida Nurota vohasida yashaydigan xalq vakilari ham ishsiz aholi sifatida ro'yxatga kiritilgan edi. Natijada, ularni ko'chirish kampaniyasi avj oldirildi. Arxiv hujjatlarida ta'kidlanishicha, ishsiz aholini ishchi kuchiga talab yuqori bo'lgan yangi yerlarga ko'chirishda ham asosiy masalalardan biri mehnat resurslarni teng taqsimlash bo'lgan [8:168, 170].

1959-yil 9-iyunda Samarcand viloyati kolxozi qurilish boshqarmasi boshlig'i Lazarevning ma'lumotnomasida Ishtixon rayon ijroiya komiteti raisining arizasiga binoan tumanga 400 xonadonni ko'chirib keltirish so'ralganligi qayd etilgan. Oblast ijroiya komiteti esa bu qarorni ma'qullagan va Qo'shrabot-1 sovxoziidan 100 xo'jalikni ko'chirish haqida buyruq chiqarilsada, lekin birorta xonadon ko'chirilmagan. Vaholanki, Qo'shrabot-1 sovxoziida istiqomat qiluvchi 1000 dan ortiq mehnatga layoqatli aholining ishsizligi ta'kidlangan [9:48].

Yoki Samarcand viloyat ko'chirish bo'limi boshlig'i P.F.Kinshakovning ushbu viloyat sovxozi tresti boshlig'i A.Karimovga O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 20-fevral 1958-yildagi №118-qarori

ijrosi bo'yicha bergen bildirishnomasida ortiqcha mehnat resurslarini Mirzacho'lga ko'chirish borasidagi ishlarni davom ettirib, 1958- yilda 700 ta xo'jalikni ko'chirish rejalashtirilganligi ta'kidlanadi. Bunda ko'chirish bo'limi bilan hamkorlikda oldindan ortiqcha ish kuchi bo'lgan sovxozlarni aniqlash va ularni sovxozi bo'yicha taqsimlash hamda mazkur rejani viloyat ijroiya komitetida tasdiqlash maslalari yoritilgan.

Markaz tomonidan ishlab chiqilgan reja asosida, 1956-yil 24-yanvarda O'zbekiston SSR Oliy Sovetining to'rtinchı chaqiriq ikkinchi sessiyasida Janubiy Qozog'iston oblastining Bo'stonliq rayoni hamda Mirzacho'lning bir qismini O'zbekiston SSR tarkibiga qo'shish to'g'risida qaror qabul qilindi. Olingan hududlarni o'zlashtirish ishlari o'sha paytning o'zida boshlab yuborildi. Buning uchun O'zbekiston SSR da Markaziy va Janubiy Mirzacho'l kanallarining suvi bilan jami 225 ming hektar yerni paxtazorga aylantirish imkoniyati mavjud edi [10: 237].

1956-yil 6-avgustda KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrlar Sovetining "Paxta yetishtirishni ko'paytirish uchun O'zbekiston SSR va Qozog'iston SSRdagi Mirzacho'lning qo'riq yerlarini sug'orish va o'zlashtirish to'g'risida" qarori qabul qilindi. Shungacha Mirzacho'lda 200 ming gektarga yaqin yer o'zlashtirilgan bo'lib, bu siyosat yanada faol davom ettirilishi kerak edi [11:131-133]. Unga ko'ra, Toshkentdan Samarqandgacha bo'lgan oraliqda paxtachiliqka ixtisoslashgan yirik rayon tashkil etishga e'tibor qaratilib, 1962-yilgacha bajarilishi kerak bo'lgan ishlar belgilab berildi. 1956-yilda rejalashtirilgan ishlar sarhisobi 1957-yilning fevralida O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetida muhokama qilindi. Muhokamalarda 1956-yil rejasi 61 % uddalanganligi qayd etilib, buning sabablari o'rganildi.

Andijon, Farg'ona, Namangan, Samarqand, Xorazm oblastlarining mutasaddi rahbarlari yangi yerkarni o'lashtirish jarayoniga sovuqqonlik bilan yondashgani tanqid ostiga olindi. Muhokamalar yakunida O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti qaror qabul qildi. Qarorda 1957-yilning may oyi oxirlarida bo'lib o'tishi kutilayotgan O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti Prezidiumida Toshkent oblastida yangi yerkarni o'zlashtirish jarayonining borishi, yaqin orada bo'lishi rejalashtirilayotgan O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti Prezidiumi yig'ilishida esa "Ko'chirish Bosh Boshqarmasi"ning yangi yerkarga aholini ko'chirish jarayoni to'g'risidagi hisobotlarini tinglashga qaror qilindi [12:19].

Mazkur qaror asosida garchand og'ir va murakkab bo'lsada, xalqimizning fidokorona mehnati tufayli cho'lning qiyofasi tubdan o'zgara bordi. O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining 1957-yil 15-martda "Mirzacho'l Yangiyer shahrini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon asosida qisqa vaqt ichida Mirzacho'lning markazida Yangiyer shahri qad ko'tardi va bu shahar o'zlashtirilayotgan yerkarning markazi sifatida shakllanib bordi.

1958-yil 15-iyunda KPSS MK va SSSR Ministrlar Sovetining "Paxta yetishtirishni ko'paytirish uchun O'zbekiston SSR, Qozog'iston SSR va Tojikiston SSRda Mirzacho'lning o'zlashtirish va sug'orish sohasidagi ishlarni yanada kengaytirish hamda jadallashtirish to'g'risida"gi yangi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror 20 ta banddan iborat bo'lib, unda kelgusida qilinishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab berildi hamda qo'riq yerkarni o'zlashtirishni 380 ming gektaga oshirish masalasi tasdiqlandi[13]. Shu qaror asosida yangi yerkarni o'zlashtirishni kuchaytirish maqsadida respublikalararo birlashgan bosh boshqarma - "Glavgolodnostenstroy" tashkil etildi. Endilikda yangi yerkarni o'zlashtirish loyihasidan tortib, yerni ekishga tayyorlashgacha bo'lgan barcha ishlar yagona tashkilot tomonidan bajariladigan bo'ldi.

Manbalarda berilgan ma'lumotlarga tayanilsa, 1950-yillarda yangi yerkarni o'zlashtirish jarayonida qator muammolarga duch kelingani ochiqlanadi. Lekin, yuzaga kelayotgan muammolar tezda bartaraf etilishi hamda yig'ilgan tajribalardan unumli foydalangan holda ishlarning tashkil qilinishi 60-yillar o'rtalariga to'g'ri keladi. Natijada, 1956-1965- yillar mobayida biringa Mirzacho'l hududida 125,700 hektar yangi yer o'zlashtirildi [14:21]. Qilingan ishlarning ijobiy natija ko'rsatishiga yana bir sabab, qo'riq yerkarni o'zlashtirish siyosati yildan yilga kuchayib borishida edi.

Belgilangan qaror ijorsini ta'minlashga nafaqat o'zbek xalqi, balki Ittifoq tarkibida bo'lgan boshqa

qardosh xalqlar hamda turli soha vakillari ham jalb etildi. Umuman olganda, O'zbekistonda 1956-yildan 1980-yilgacha amalga oshirilgan qo'riq kampaniyasi umumittifoq miqyosida amalga oshirilayotgan ommaviy o'zlashtirish ishlari bilan bevosita aloqador bo'ldi. Qo'riq yerlarni o'zlashtirish, aholiga iste'mol mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish, mehnatkashlar turmush darajasini yaxshilash tadbirlari rivojlangan kapitalistik davlatlar darajasiga yetish kabi o'ta muhim siyosiy, strategik dasturlar doirasida bajarilganligini e'tirof etish lozim bo'ladi.

Yangi yerlarni o'zlashtirish ishlari hukumatning zaruriy va kechiktirib bo'lmas vazifasi hisoblanib, bu ishlar Sobiq Ittifoq hukumatining faol targ'iboti bilan birga qo'shib olib borildi. Tabiiyki, bu jarayon doimiy ravishda partiya va ijro organlari tomonidan nazorat qilingan. Jarayon davriy matbuot, radio, televideniye, partiya tashkilotlari, komsomol, kasaba uyushmasi yig'inlarida muntazam muhokama qilib borilgan. Matbuot organlarida yoshlarni yangi yerlarni o'zlashtirish jarayoniga jalb etuvchi ko'plab maqola, xabar, e'lonlar berilgan.

SSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Mehnat rezervlari Bosh boshqarmasi tomonidan 1956-1962-yillarda qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash bilim yurtlari, hunar maktablari va mehnat rezervlari maktablarini tamomlayotgan kishilardan Mirzacho'lga-yangi tashkil qilinayotgan sovxozlarga va qurilish tashkilotlariga 24,4 ming mexanizatorni va malakali binokor ishchini yuborilishini, shu jumladan, 1956-yilda 4,4 ming kishini (shundan O'zbekiston SSRga -3 ming kishini va Qozog'iston SSRga -1,4 ming kishini) hamda 1957-yilda 5 ming kishi (shundan, O'zbekiston SSRga - 3,3 ming kishi va Qozog'iston SSRga - 1,7 ming kishi)ni safarbar etilishi ma'lum qilingan edi [15:23].

1956-yil 23-oktabrda Toshkent komsomollarining birinchi guruhi Mirzacho'ltagi doimiy ishlarga yuborilgan bo'lsa, ikkinchi guruhi shu yilning 14 noyabrida u yerga jo'nab ketdi. Ular orasida rus, ukrain, o'zbek, tatar, arman va boshqa millatlarning turli kasbdagi yigit-qizlari bor edi. Bu yoshlar Mirzacho'lga kelishi bilanoq "Glavgolodnosepstroy"ga qarashli 1-qurilish montaj boshqarmasining obyektlariga ishga joylashtirilgan [3:49].

Rosiya imperiyasi davridan qolgan tajribaga asoslanib, sobiq Ittifoqning uzoq o'lklalaridan ham qo'riq yerlarni o'zlashtirish uchun aholini ko'chirish amalga oshirildi. Masalan, 1956-yilda Zaparoyje, Smolensk, Kurgan, Kiyev va boshqa shaharlarning FZO maktablarini 12 ming bitiruvchisi Mirzacho'lda ishslash tashabbuskori bo'ldilar. Ular asosan sanoat ishlab chiqarishiga jalb etilgan.

Yangi yerlarni o'zlashtirish davrida belgilangan vazifalarni muddatidan oldin va rejadagidan oshirib bajarishda va sotsialistik musobaqa uyuştirilishi natijasida amalga oshirilayotgan ishlarda turli muammolar ko'zga tashlanadi. Shuningdek, belgilangan vazifalar bo'yicha aniq loyiha rejalarining o'z vaqtida tayyorlanmaganligi va qurilish materiallari yetarli emasligi hamda shoshma-shosharlik natijasida bir-biri bilan aloqador ishlarda ko'pgina muammolar yuzaga kelgan. Jumladan, Mirzacho'lni o'zlashtirish jarayonida 1957-yilda tugallanishi lozim bo'lgan 511 ta uyning qurilishi 1958-yil iyuniqa qadar davom etgan. Shuningdek, 1958-yilda qurilishi rejalshtirilgan uylar bo'yicha vazifalar yilning 5 oyi o'tib ketgan bo'lsa-da, hali boshlanmagan edi. O'sha kezlarda Yangiyer shahrida 30 ming kvadrat metr uy-joyga ehtiyoj bo'lgan, biroq 10 ming kvadrat metr uy-joy foydalanishga topshirilgan, xolos [16].

Ko'chirilgan aholi boshidan kechirgan qiyinchiliklar barcha o'zlashtirilayotgan hududlarda deyarli bir xil bo'ldi, deyishimiz mumkin. Jumladan, Samarqand oblasti Nurota (hozirgi Qo'shrabot tumani) Quvkalla qishlog'idan Toshkent viloyati Bekobod tumaniga 1951-yil ko'chib kelgan O'rol bobo xonardonida tug'ilgan O'rozali aka shunday eslaydi: "Oilamiz ahli Toshkentga ko'chib kelgach, men tug'ilgan ekanman. Biz bilan birga qo'shni g'ujimsoyliklar ham ko'chib kelishgan ekan. Ularning xonardonida ham o'g'il tug'ilib, uning ismini Toshkentboy qo'yishgan. Bizlar ko'chib kelgan yer qamishzor bo'lgan ekan. Dastlab ko'chib kelganlar yerto'lalarda yashashgan. Bir yildan so'ng ularga uy berilgan. Biroq, qishlog'imizdan ko'chib kelgan 20 xonodon ahli mahalliy aholi-qozoqlar bilan tortishib qolib, bir kunning o'zidayoq uylarni qoldirib, zarur buyumlarini olib, jonajon qishloqlariga qaytib

ketgan ekan” [17]. Mazkur xotiralardan ham anglashiladiki, cho‘l zonasiga ko‘chirilgan aholini uy-joy bilan ta’minlash muammolaridan tashqari, bu yerlarda odamlarning qulay yashashi uchun infratuzilma, eng zarur bo‘lgan yo‘llar ham barpo etilmagan edi. Bir so‘z bilan aytganda, mavjud ijtimoiy-ma’naviy muhit hukumat tomonidan inobatga olinmagan.

Ma’lumki, Mirzacho‘ldagi qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirayotgan kolxoz va sovxozlarga o‘z oilalari bilan ko‘chib borish istagida kolxozchilar va boshqa kishilardan ko‘plab ariza tushayotganligi munosabati bilan ularga ko‘chib borish va yangi istiqomat joyida joylashish uchun yordam ko‘rsatish tadbirlari belgilangan. Xususan, boshqa oblastlardan ko‘chib kelishni xohlovchilarga joyni tanlash imkoniyati berilgan. Shuningdek, ko‘chib boriladigan joyga ularning moddiy ashyolarini bepul yetkazib berish, oila boshlig‘iga 600 so‘m va oilaning har bir a‘zosiga 200 so‘mdan bir yo‘la yordam puli, uy-joy qurib olish uchun esa 19 ming so‘m qarz berilgan. Bu qarzning 35 foizini davlat o‘z zimmasiga olgan, qolgan qismini esa ko‘chib boruvchi 10 yil mobaynida to‘lashi qonuniy jihatdan belgilab qo‘yilgan edi.

Bundan tashqari, qoramolsiz xo‘jaliklarga sigir yoki buzoq sotib olish uchun 1500 so‘mgacha qarz berilgan, oila boshlig‘iga 1,5 sentnerdan va oilaning har bir a‘zosiga 0,5 sentnerdan don tarqatilgan, uni berilgan kundan boshlab 3 yil davomida uzish kerakligi ko‘rsatilgan. Ko‘chib boruvchilar 4 yilgacha qishloq xo‘jaligi solig‘i va davlat majburiyatidan ozod qilingan edilar [18]. Bunday imkoniyatlarni yaratib berishdan ko‘zlangan asosiy maqsad, aholini shu zaylda cho‘l hududlariga ko‘proq jalb qilish va joylashtirish bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, qo‘riq va bo‘z yerlarning o‘zlashtirilishi natijasida respublikaning paxta maydonlari kengaydi, aloqa, komunikatsiya va transport xizmati yo‘lga qo‘yildi, yangi turar joylar elektrlashtirildi. Bu o‘zgarishlar o‘sha paytda aholi uchun yaratilgan yangi imkoniyatlar edi va respublikaning iqtisodiy jihatdan rivojlanishida o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Biroq, hukumat tomonidan aholiga ko‘zda tutilgan hamma yengilliklar amalda to‘liqligicha bajarilmadi, berilayotgan imkoniyatlarning bir qismi qog‘ozlarda qolib ketdi. Natijada, yangi yerlarga ko‘chib kelgan aholining maishiy turmushida qator qiyinchiliklar saqlanib qolaverdi.

### Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. O‘zR MDA. 1-jamg‘arma, 5-ro‘yxat, 939-saqlash birligi, 6-varaq.
2. Boltayev A. Mirzacho‘lning dastlabki sug‘orish tarmoqlari //“Qadimiy Jizzax vohasi – Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tizimida (siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot)”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Jizzax: 2019.
3. Mirzaliyev U.B. O‘zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari misolida, 1956-2020-yy.) T.f.b.falsafa doktori ilmiy darajasini oldish uchun yozilgan (PhD) diss... Toshkent: 2022.
4. Джалилов Х.М. Хлопковые совхозы Голодной степи и их развитие. Т.: Государственное издательство Узбекской ССР, 1959.
5. Вторая мировая война. Итоги и уроки. Москва: Воениздат, 1985.
6. Abdullayev A.N. O‘zbekistonda paxta yakka hokimligi va uning oqibatlari. Tarix fan.dokt. ...diss. Toshkent, 2010.
7. КПСС в резолюциях советского правительства по хозяйственным вопросам. Т.7. Москва, 1968.
8. O‘zR MDA. 2347-fond , 1-ro‘yxat, 53-ish. 119, 168, 170-varaqlar.
9. Samarqand viloyat davlat arxivisi. 74-fond, 1-ro‘yxat, 952-ish. 48-varaq.
10. Boboyev F. Mirzacho‘lni o‘zlashtirishda yutuq va muammolar //“Qadimiy Jizzax vohasi – Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tizimida (siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayot)”. Respublika ilmiy-

amaliy konferensiya materiallari. Jizzax: 2019.

11. O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). I tom. Mas’ul muharrirlar: Abdullayev R., Raximov M., Rajabov Q. T.: “O‘zbekiston”, 2019.
12. Rizayev B.N. O‘zbekistonda 1950-1970-yillari yangi yerlarni o‘zlashtirish jarayonida aholini ko‘chirish siyosati (Buxoro oblasti misolida). T.f.b. falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan (PhD) diss... Buxoro, 2021.
13. “Правда Востока”, 11 июля 1958 года
14. Komilov O.K.O‘zbekistonda irrigatsiya tizimlarining rivojlanishi va uning oqibatlari: Tarix fan.dokt. ...diss. Andijon: 2017.
15. Qalimbetov.J., Jalilov D. Mirzacho‘lni o‘zlashtirishda O‘zbekiston yoshlarining ishtiroki. T.: “O‘zbekiston”, 1958.
16. Tersitskiy D.K. Mirzacho‘lni yangi eng yirik paxtachilik rayoniga aylantiramiz! //“Qizil O‘zbekiston”. 1958-yil 18- iyun.
17. Dala yozuvlari: O‘rozali Bolbekov, Samarqand viloyati, Qo‘shrabot tumani, Quvkalla qishlog‘i. 2022- yil 10- oktabr.
18. “Qizil O‘zbekiston”, 1956-yil 22- noyabr.